O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti va Toshkent shahridagi Inha universiteti o‘rtasida hamkorlik to‘g‘risidagi

MEMORANDUM

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti va Toshkent shahridagi Inha universiteti keyingi o‘rinlarda Tomonlar deb ataluvchilar, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish sohasida, shuningdek, ilmiy salohiyatni oshirish, ilmiy loyihalarni hamkorlikda bajarish bo‘yicha Toshkent shahridagi Inha universitetining Respublikamizda tutgan o‘mi va rolini alohida e’tirof etgan holda, amaldagi qonunchilik, tomonlarning mavjud vakolatlari hamda ularning o‘zaro manfaatlari doirasida va teng huquqlilik printsipiga asoslangan holda quyidagilar to‘g‘risida kelishib oldilar:

1-modda

Ushbu Memorandumning maqsadi ta’lim sohasida kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish hamda ilmiy-tadqiqot faoliyat yuzasidan ikki tomonlama hamkorlik munosabatlarini tartibga solish hisoblanadi.

2-modda

Tomonlar o‘zaro hamkorlikni quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiradilar:

- ilmiy-tadqiqot metodologiyasi, axborot texnologiyalari sohasida pedagogik mahoratni oshirish va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha tajriba almashish maqsadida uslubiy hamkorlikni tashkil etish;
- ilmiy-tadqiqot loyihalarini hamkorlikda bajarish;
- ta’lim sohasida pedagogik-psixologik muammolar, milliy, mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikning dolzarb masalalari bo‘yicha ikkala tomonda tashkil etiladigan ilmiy tadbirlar (seminar, ilmiy-amaliy konferensiyatar, davra suhbatlari va h.k.da tomonlarning vakillari ishtirok etishi;
- tomonlar tegishli yo‘nalishlar bo‘yicha o‘zaro masofaviy ta’lim tizimini joriy etish, ilmiy va amaliy yutuqlarni amaliyotga tadbiq qilish; ochiq dars va master klass mashg‘ulotlarini hamkorlikda tashkil etish;

Toshkent shahridagi Inha universiteti professor-o’qituvchilari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti xodimlariga turli AKT yo’nalishlari bo’yicha o’quv kurslarini shartnoma asosida tashkil etish.

KIR. RAQAMI 1596
«28» 03 2023 YIL
3 VARAQDA
ILOVA - VARAQDA
O'ZB. RES. JXB

Mazkur hamkorlik masalalari O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid kelmasligi lozim.

3-modda

Ushbu Memorandumni amalda tatbiq etish bilan bog‘liq moliyaviy masalalar tomonlarning kelishuvi asosida har bir holatda alohida hal etiladi

4-modda

Mazkur Memorandum doirasida qabul qilingan ma’lumotlarni uchinchi tomonga taqdim etish yozma tartibdagi kelishuv asosida amalga oshiriladi.

5-modda

Tomonlarning hamkorligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqaga chiqish orqali amalga oshiriladi.

6-modda

Ushbu Memorandum tomonlarning zimmasiga hech qanday yuridik yoki moliyaviy majburiyatlarni yuklamaydi.

7-modda

Memorandum doirasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan har qanday qarama- qarshilik yoki kelishmovchiliklar tomonlarning maslahatlashuvi orqali hal etiladi.

8-modda

Mazkur Memorandumga tomonlarning o‘zaro kelishuvi asosida tayyorlangan yozma ko‘rinishdagi bayonnomalar orqali o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.

9-modda

Memorandum doirasidagi masalalar yuzasidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotga kirishuvchi mansabdor shaxslarning ro‘yxati o‘zaro almashiniladi.

10-modda

Ushbu Memorandum imzolangan sanadan boshlab kuchga kirib, 5 yil davomida amalda boladi. Agar tomonlardan biri boshqa tomonga uning amal qilish muddatini tugatish haqida uch oy oldin yozma ravishda xabar bermagan taqdirda, o‘z o‘zidan amal qilish muddati keyingi 5 yillik muddatlarga uzaytirib boriladi.

Memorandum tugatilgan holda, barcha amaldagi loyihalarning bajarilishi, tomonlar o‘zgacha qaror qilmasalar davom etadi.

Memorandum Toshkent shahrida 2023 yil “13” mart sanasida ikki asl nusxada, ularning har biri o‘zbek tilida tayyorlandi.

Manzil :
Toshkent viloyati, Zangiota tumani,
Chorsu qo‘rg‘oni, 1/1
Tel. 71 230-32-71
e-mail: info@mgjxu.uz

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavsizligi universiteti boshlig‘i

Rustambayev Mirzayusup Xakimovich

Manzil :
Toshkent shahar, Ziyilolar ko‘chasi 9,
Tel. 71 299-99-99
e-mail: info@inha.uz

Toshkent shahridagi Inha universiteti rektori v.b.

Djalalov Muzaffar Muhitdinovich